



## HUDUD IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANGANLIGINI BELGILAB BERUVCHI OMILLAR

## FACTORS DETERMINING THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGION

## ФАКТОРЫ ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНА

**Usmonova Maftuna Ibodullo qizi**

*O'zbekiston Milliy Universiteti 1 Kurs Magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hudud ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini belgilab beruvchi omillar, shuningdek hudud iqtisodiy rivojlanishida tabiiy muhit va resurslarning o'rni chekka hududlarni rivojlantirish bo'yicha bir qancha takliflar bayon etilgan.*

**Kirish so'zlar:** *Hudud, hududni rivojlantirish, tabiiy resurs, tabiiy muhit, geografik determinizm, ekologik muhit, iqtisodiy salohiyat, rekreatsiya, iqtisodiy tamoyil.*

“Hudud” so'zi yoki termini odatda ma'lum bir chegaralarga ega bo'lgan yer maydonini anglatadi. Tabiiy-geografik nuqtai nazaridan “hudud” termini yer yuzasi sifatida tushuniladigan “manzil” termini bilan uzviy bog'liqdir.<sup>37</sup> Funktsional mohiyatga, joylashgan o'rniga, o'lchamlariga qarab hududlar turlicha bo'lishi mumkin: mamlakat, viloyat, shahar, qishloq joylari, tabiat majmualari, milliy parklar va boshqalar.

Keng ma'noda “hudud” so'zi (yer ustining bir qismi nuqtai nazardan) insonlarni joylashtirish va hayot faoliyatining ma'lum bir joyi hisoblanadi. Hudud, bir tomondan, insonlar tomonidan amalga oshiriladigan antropogen faoliyatning makoni, ikkinchi tomondan esa u tabiiy majmuaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hududning bunday birgalikdagi ikkita xususiyati uni ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik mohiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy jihatdan hudud aholini joylashtirish o'rni, aholining yashash makonini joylashtirish o'rni hisoblanadi. Ma'lumki ijtimoiy hududlarga aholining uy joylaridan tashqari ular faoliyati kechadigan barcha hududlar masalan: mehmonxona, turbaza, bozor, savdo markazlari, sanatoriyalar va boshqalarni ham kiritishimiz mumkin.

Hududning iqtisodiy mohiyati aholining xo'jalik faoliyatini bu yerda yuritishni, jamiyatni mavjud bo'lishini ta'minlaydigan ishlab chiqarish va o'zga infratuzilmalarda unga joylashtirishni ko'zda tutadi. Shaharlar hududlari chegarasida asosan sanoat ob'ektlari, shuningdek transport, savdo, xizmat ko'rsatish sohasining ob'ektlari joylashtiriladi. Qishloq hududlarida (shahar hududidan tashqarida) qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligining ishlab chiqarish ob'ektlari, shuningdek qayta ishlash va kimyo sanoatining bir qator ob'ektlari joylashgan. Qishloq hududlarida yo'l, sug'orish va

<sup>37</sup> Babajonov. A. R., Muqumov A.M Hududlarni rivojlantirish. –Toshkent.2018



kollektor-zovur tarmoqlari hamda ulardagi inshootlar, ko'pgina omborxonalar va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari joylashgan bo'lishi mumkin.

Ekologik nuqtai nazardan olib qaralganda esa hudud yer ustki qismining bir bo'lagi sifatida o'ziga xos bo'lgan tabiat kompleksi hisoblanadi. Har bir tabiat kompleksi tabiatda o'z tabiiy iqtisodiy, ekologik vazifalarni bajaradi, Shuningdek hudud ham insoniyatning asosiy hayot jarayoni kechadigan qismi bo'lib bevosita insonga va insonning unga ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Insoniyat tomonidan hududlarni o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari, rekreatsion va ekologik xavfsizligi, shuningdek tabiatni muhofaza qilish manfaatlari moslashtirish jarayonlari " hududni rivojlantirish" deb yuritiladi."Hududni rivojlantirish" to'g'risida aniq ilmiy konsepsiyalar mavjud emas. Uning asl mohiyati, fikrimizcha, Shundan iboratki, u inson zaruriyati uchun hududlarni imkon boricha yaxshiroq moslashtirish, u yoki bu hududdan foydalanish natijasida ma'lum bir hududdan ko'proq boylik olish maqsadida ushbu hududning landshaftiga doimiy tarzda ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ko'p qirrali ta'siridan iboratdir. Hududni rivojlantirish doimiy tarzda jamiyatni tabiatdan foydalanishining ob'ektiv zaruriyati bilan tushuntiriladi, negaki busiz jamiyat rivojlana olmaydi. Hududni ma'lum maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishiga zaruriyat tabiiy resurslarni moddiy va boshqa turlardagi boyliklarni yaratish uchun moslashtirishga intilgan insonning yaratuvchanlik faoliyati bilan belgilanadi. Hududni ko'p maqsadli rivojlantirish tabiatdan foydalanishning tabaqalangan usullari va uslublarini talab qiluvchi turli-tuman moddiy va boshqa boyliklarni jamiyat tomonidan yaratishga zaruriyat bilan tushuntiriladi. Hududni rivojlantirish, bir tomondan, jamiyatni ob'ektiv tarzda rivojlanishi bilan, jumladan, tabiatning talablarini doimo o'sib borish qonuni bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, hududni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga egadir. Ikkinchi tomondan, insonni tabiatga antropogen ta'siri atrofmuhitga salbiy ta'sir ko'rsatishga olib keladi, ya'ni hududni rivojlantirish ekologik mohiyatga ham egadir. Tabiatga etkaziladigan zarar unga ta'sir ko'rsatish usullari, uslublari va miq'yoslariga bog'liqdir. Shuning uchun ham hududni rivojlantirish tabiatdan foydalanishni ekologiyalashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligidan dalolat beruvchi omillarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- ✓ Hududning mamlakat yoki viloyat iqtisodiyotida tutgan o'rni
- ✓ Hududda rivojlangan xo'jalik tarmoqlarining tarkibi
- ✓ Hudud transport infratuzilmasining rivojlanganligi
- ✓ Tabiiy resurslar bilan taminlanganlik darajasi
- ✓ Hudud ekologik holatining sog'lomlashtirilganligi
- ✓ Aholining yashash sharoiti
- ✓ Aholining sohalar bo'yicha bandlik ko'rsatkichlari
- ✓ Jamiyat hayotida ayollarning tutgan o'rni yuqoriligi



✓ Hududda bolalar o'limining kam ko'rsatgichga ega ekanligi

✓

Bundan kelib chiqqan holatda shuni xulosa qilib aytish mumkinki har qanday hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita uning tabiiy sharoiti va resurslar salohiyati, shuningdek jamiyat hayotining qulaylik imkoniyatlari bilan bog'liq hisoblanadi. Chunki har qanday rivojlangan davlat yoki shaharni tabiiy holatini kuzatar ekanmiz avvalo uning tabiiy geografik o'rni beqiyos ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin. Hudud tabiiy geografik o'rning uning iqtisodiy siyosiy hayotiga ta'sirini yirik geosiyatchi olim, geografik determinizm go'yasi tarafdorlari ham ta'kidlab o'tgan.

Bundan tashqari aholining yashash sharoiti har qanday mamalakat yoki hudud iqtisodiy salohiyatini anglatuvchi ko'rsatkichlardan eng asosiylari hisoblanadi. Ayniqsa butun jahonda aholi orasida bolalar o'limining ulushi mamalakat iqtisodiy rivojlanganlik ko'rsatkichlari tarkibiga kiritilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Babajonov. A. R, Muqumov A.M Hududlarni rivojlantirish. –Toshkent.2018
2. Mo'minov D.G' Sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasi . Qo'qon 2010
3. Nigmatov A.N. Yer huquqi. -T.: "Islom universiteti", 2001.
4. [www.journal.tsue.uz](http://www.journal.tsue.uz)